



ZAMONAVIY TERGOV AMALIYOTIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING O`RNI

Sadullayev Hasan

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

sadullayevhasan130@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada mamlakatimizda inson huquqlariga oid olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *zamonaviy tergov, protsessual hujjatlar, foto va videokameralar bilan jihozlangan uchuvchisiz havo apparatlari, 3D – modellashtirish usullari va boshqalar.*

Annotation: *This article provides information about the reforms related to human rights being implemented in our country and new approaches to human rights in modern investigative practices.*

Keywords: *modern investigation, procedural documents, unmanned aerial vehicles equipped with photo and video cameras, 3D modeling techniques and others.*

Аннотация: *в данной статье освещаются реформы, проводимые в нашей стране в области прав человека, а также новые подходы к правам человека в современной следственной практике.*

Ключевые слова: *современное расследование, процессуальные документы, беспилотные летательные аппараты с фото и видеокамерами, методы 3D-моделирования и другие.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida barcha sohalarini xususan, sud-huquq, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa jabhalarni sifat jihatidan shakllantirish hamda ular faoliyatini xalq manfaatlarini va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan mazkur faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida amalga oshirishda eng muhim vazifalaridan biri "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, "Inson qadri uchun" g'oyasini to'laqonli ro'yobga chiqarish yo'lidagi yana bir muhim qadamlardan biri sifatida adolatli sud qarorlari qabul qilinishi orqali xalqning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarning siyosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Oldinga qo'yilgan ushbu maqsadlarga yetishishda jumladan, jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ushbu yo'nalishga ilg'or xorijiy



davlatlarning xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish talab etadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2022 yilda "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-son Farmoni qabul qilindi va unga ko'ra, Bosh prokuratura Akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil etildi.

Ushbu Akademiyani tashkil etishdan asosiy ko'zlangan maqsad jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi kadrlarni yagona yondashuv asosida amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya qilish madaniyati bilan uyg'unlashgan holda dastlabki tergov sohasida mutaxassislarni tayyorlash, maxsus kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarni mazmun va mohiyatini tushungan holda adolat va mas'uliyat bilan qarorlar qabul qilinishiga erishish deb o'ylayman.

Yuqoridagilardan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohotlar, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar inson manfaatlaridan kelib chiqib, ularning foydasiga xizmat qilmoqda. Ta'kidlash joizki, inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash sohasida aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur strategiyaning mantiqiy davomi sifatida "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi va unda O'zbekistonning yaqin va o'rta istiqboldagi taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo'nalishlari aniq belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston tarixida 2023-yil aprel oyida ilk bor konstitutsiyaviy referendum o'tkazildi, uning tamal toshi inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, inson qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlariga taalluqli konstitutsiyaviy normalar 3 baravardan ortiq ko'paydi va 50 dan ortiq moddani tashkil etdi. Konstitutsiyada inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligi tamoyillariga sodiqlik mustahkamlangan. O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida xalqaro miqyosda tan olingan huquqshunoslik institutlari - Miranda qoidalari, Habeas korpus, Pro bone alohida normalar bilan belgilab berilgan. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini



o'zgartirmoqda. Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi. Asosiy e'tiborni inson huquq va manfaatlarini, uning qadr-qimmatini har tomonlama, sifatli, samarali hamda to'laligicha ta'minlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga "Advokatura" bobi qo'shildi.

Unga ko'ra, barcha protsessual harakatlardan, shu jumaladan surishtiruv va dastlabki tergovda himoyachi tomonidan istalgan vaqtda jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarorlardan nusxa olish, ko'rsatmalarni oldindan mustahkamlab qo'yish uchun sudga to'g'ridan-to'g'ri iltimosnoma kiritish, tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxslarga malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqini kafolatlash kabi normalar kiritildi.

Bundan tashqari, yangilangan Konstitutsiyada tergovga qadar tekshiruv jarayonida himoyachi maqomida ishtirok etish, ish bo'yicha shartnoma asosida sud ekspertizalari o'tkazilishini va zarur bilimga ega mutaxassislar jalb qilinishini tashkillashtirish, jinoyat ishi bo'yicha ma'lumotlarga ega shaxslarni so'rovdan o'tkazishda ularning roziligi bilan maxsus texnika vositalaridan foydalanish bo'yicha qoidalar byelgilandi.

Bir so'z bilan aytganda, yangilangan Konstitutsiyamizda jinoyat-protsessi va boshqa jabhalarda inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha himoyachilarning mazkur sohadagi maqomi maxsus norma bilan mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni qabul qilinib, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi hamda davlat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etildi.

Mazkur Farmonda inson huquqlariga oid amaliyot har bir sohani qamrab olishi va davlat organlari xodimlarining ushbu sohasidagi ma'suliyatini yanada oshirishga qaratilgan. Shuningdek, mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.1996 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi PF-1611-sonli Farmoni qabul qilinib, undan inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsad qilingan.

Shu o'rinda yana bir institutga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 15.11.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson



huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi O'RQ-1002-son Qonuni qabul qilindi.

Qonunga muvofiq vakil davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlamenti nazoratini amalga oshirishi belgilab ko'yildi.

Shuningdek, Qonunda vakilning asosiy vazifalaridan biri sifatida ya'ni, ichki ishlar organlari tizimiga kiradigan ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus muassasalarda, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizoni hamda qo'shin gauptvaxtalarida, vaqtincha saqlash hibsonalarida, tergov hibsonalarida, jazoni ijro etish muassasalarida, intizomiy qismlarda, majburiy davolash muassasalarida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash hollarining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish belgilanishi ham jamiyatning har bir a'zosini qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlardan biri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

2024 yil 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga asos solinganligiga ikki yil to'lgan kuni oliy harbiy va oliy yuridik ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida "Zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar" mavzusidagi respublika yosh huquqshunoslar respublika ilmiy-amaliy konferyensiyasi o'tkazildi.

Konferensiyada zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, dastlabki tergov va surishtiruv faoliyatida inson huquqlarini ta'minlash masalalari, bu borada jinoyat-protsessiga yangi joriy etilgan va takomillashtirilgan institutlar, qonunchilikka kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning ahamiyati, mavjud muammolar va ularning yechimlari borasida fikr yuritildi.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamanki, bu kabi ilmiy-amaliy tadbirlarni o'tkazilishi biz yosh kadrlar uchun manfaatli bo'lib, ushbu sohaga bo'lgan qiziqishimizni yanada kuchayishida, jamiyatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabat bildirishda hamda ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan o'z fikr mulohazalarimizni mustaqil ravishda takliflar orqali bayon qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globalashuv va raqamlashtirish sharoitida jinoyatchilikning shakl va usullari tobora murakkablashib bormoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida kiberjinoyatlar, transmilliy jinoyatlar, moliyaviy firibgarlik va elektron ma'lumotlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar sonining ortishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishning an'anaviy usullari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalarni ham keng qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan



birga, yangi texnologiyalarning tergov jarayoniga joriy qilinishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy tergov amaliyoti nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va javobgarlikka tortish, balki protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ham nazarda tutadi. Chunki adolatli tergovning asosiy mezonlaridan biri — bu insonning huquqiy maqomi, sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishdir. Shu sababli zamonaviy huquqiy davlatlarda tergovning samaradorligi faqat jinoyatlarni fosh etish ko'rsatkichlari bilan emas, balki inson huquqlarini ta'minlash darajasi bilan ham baholanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson huquqlarini himoya qilish tergov tizimining ajralmas qismiga aylanganini ko'rish mumkin. Ko'plab davlatlarda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilish jarayonlari to'liq audio va video qayd etilishi amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Mazkur mexanizm bir tomondan noqonuniy bosim va ruhiy tazyiqlarning oldini olsa, ikkinchi tomondan protsess ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv shaffoflikni ta'minlaydi hamda keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan protsessual nizolar sonini kamaytiradi. Bundan tashqari, jinoyatlarni tergov qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi ham tobora kengayib bormoqda. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, videokuzatuv tizimlaridagi shaxslarni aniqlash, yuzni tanib olish texnologiyalaridan foydalanish va jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqori hududlarni aniqlash imkonini beradi. Ammo bu texnologiyalarni qo'llashda shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlar xavfsizligi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Shuningdek, raqamli kriminalistika bugungi kunda tergov amaliyotining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Elektron dalillarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish usullarining takomillashuvi jinoyatlarni tezkor aniqlashga yordam bermoqda. Mobil qurilmalar, kompyuterlar, internet tarmoqlari va elektron to'lov tizimlaridagi ma'lumotlar tergov uchun muhim dalil manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, elektron dalillar bilan ishlashda protsessual tartiblarning qat'iy saqlanishi ham muhim hisoblanadi. Chunki qonun talablariga rioya etilmagan holda olingan dalillar sud tomonidan haqiqiy deb topilmasligi mumkin.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni huquqni muhofaza qilish faoliyatiga keng joriy etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Elektron sud tizimlari, masofaviy sud majlislari, videokonferensaloqa vositalari hamda elektron ma'lumot almashinuvi tizimlarining joriy qilinishi odil sudlovni ta'minlashning zamonaviy mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizimlar fuqarolarning vaqtini tejash, protsessual shaffoflikni oshirish va inson omili bilan bog'liq ayrim kamchiliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Tergov faoliyatida inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu yo'nalishda tergov



organlari xodimlarining huquqiy madaniyati, kasbiy tayyorgarligi va ma'naviy mas'uliyatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki eng mukammal qonun ham uni amaliyotda to'g'ri qo'llaydigan malakali mutaxassislersiz kutilgan natijani bermaydi.

Kelgusida tergov tizimini yanada takomillashtirish maqsadida inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini keng joriy qilish, tergov harakatlarining shaffofligini oshirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda "Inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 15.11.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi O'RQ-1002-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.1996 yildagi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi PF-1611-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2022 yildagi "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-son Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2023 yildagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni.